



**MAKTAB MUSIQA TA'LIMIDA MAQOM NAMUNALARINI
O'RGANISHNING AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY
TEXNOLOGIYALARI**

Mardonova Shoxsanam Xo'jaqulovna

O'z Fin PI San'atshunoslik fakulteti, Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi
II bosqich magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7980389>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2023

Accepted: 28th May 2023

Online: 29th May 2023

KEY WORDS

Maqom, Shashmaqom, jonli ijro, qo'shiq, janr, mushkilot, nasr, milliy bezaklar, kuy, bozgo'y, xona, gardun, muxammas, tarje, tasnif.

ABSTRACT

Ushbu maqolada umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darsi va sinfdan tashqari ishlar jarayonida maqom namunalarini o'rganishning an'anaviy va zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish mazmuni ochib berilgan.

Musiqa asarlarini tushunish uchun takror-takror eshitishning foydasi katta. Chunki kuy kishining qulog'iga o'rnasha boradi va eshitish hissini kamolotga erishuvda ma'lum malaka hosil qiladi hamda eshitish qobiliyati shakllana boradi. Ayniqsa, musiqa asarlarini ongli ravishda eshitish uchun yoshlikdan boshlab bunga tajriba orttirib borish alohida ahamiyatga ega. **(Is'hoq Rajabov).**

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, ko'p sohalar qatori musiqa madaniyati jabhalarida ham hayotbaxsh o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Ayniqsa, so'nggi yillarda jonajon Vatanimizda asriy maqom san'atiga bo'lgan e'tibor benihoya ortganligi quvonarlidir. Bu borada davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev 2017-yilning 17-noyabr kuni e'lon qilgan «O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori muhim ahamiyat kasb etdi. Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasi o'laroq tarixan qisqa davr mobaynida ko'p asrlilik xalqchil va mumtoz musiqa an'alarini o'rganish, o'zlashtirish va targ'ib etishga qaratilgan qator e'tiborli ishlar amalga oshirildi.

Ma'lumki, maqom san'ati tarixining uzun o'tmishi davomida har biri o'ziga xos uslubli (mahalliy) ijro maktablari qaror topgan edi. Shulardan eng yirik markazlari qatorida Buxoro, Samarqand, Xorazm (Xiva), Qo'qon, Xo'jand, Andijon, Toshkent maktablarini qayd etish mumkin. Qayd etilayotgan bu ijobiy holatlar maqom ijrochiligi sohasi tobora keng tus olayotganligini, bu yuksak san'at namunalaridan xalqimizning turli ijtimoiy guruhlarini bahramand etish imkoniyatlari mavjudligini, shu jumladan, so'nggi asrlarda maqomchilik an'analari ancha susaygan vohalarga (masalan, Surxondaryo, Qashqadaryo va boshqa) ham bu san'at yoyila boshlaganligini ko'rsatadi. So'nggi paytlarda maqomlarni, xoh katta, xoh kichik shaklda bo'lsin, turkum tarzida ijro etish an'anasiga doim ham rioya qilinmayotganligi va, aksincha, uning tarkibiy qismlarini konsert sahnalarida alohida (yakka ko'rinishda) ijro etish tamoyili tobora odatiy tus olayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Ma'lumki, bu salobatli



san'atning teran mazmun-ma'nolari turkum darajasidagina o'zining barcha (boshlang'ich, o'rta va yakuniy) bosqichlarini to'la ifoda eta oladi. Shu bois, ustozlar maqomlarni imkon boricha turkum holda ijro etib kelganlar. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bugungi kunda qariyb barcha viloyatlarda turli tarkibga ega an'anaviy maqom ansamblari yoki har holda maqom namunalari ijrosini «chetlab o'tmayotgan» ijodiy guruhlar faoliyat ko'rsatmoqda. Va, hatto umumiy ta'lim maktablarida ham folklor guruhlari qatorida maqom ansamblini tuzish sa'y-harakatlari muayyan reja va dastur asosida boshlab yuborildi.

O'quvchilarni maqom namunalari bilan oshno qilishda ularga birinchi navbatda maqomlar haqida nazariy ma'lumotlar berish lozim. Maqomlar tarixi, ularning dastlabki namunalari va rivojlanish bosqichlari, janr, shakl va mazmuni, tuzilish xususiyatlari va tamoyillari, cholg'u va ashula yo'llari, ijro an'analari, unda "nola", "Nolish", "Molish", "Kashish" kabi milliy bezaklar va qochirimlarning ishlatilishi va boshqa mavzular bo'yicha tushunchalar hosil qilishda darslikdagi matnlar haqida gapirish, ularni darslikdan o'qitish, atama va tayanch iboralarni mazmunini anglatish, axborot texnologiyalari va interfaol usullardan foydalanib, noan'anaviy darslar tashkil etishda tarqatma va ko'rgazmali qurollardan unumli foydalanish, kichik guruhlarda ishlashda mavzuning ajratilgan bo'lagi bo'yicha o'quvchining qisqa chiqish so'zi, suhbat (savol-javoblar), bahs va munozara, guruhlar chiqishini boshqa guruh o'quvchilari tomonidan baholash, baholarni asoslash, o'qituvchining dars jarayonini sharhlashi va yakunlashi, yetuk maqomxon va maqomdon ustoz ijrochilar hayoti va faoliyati haqida hikoya qilishda shunday yo'l va usullarni qo'llash mumkin.

Maktab musiqa madaniyati darslari va sinfdan tashqari musiqiy ishlarda xalq musiqasining folklor namunalari boshlab, bolalar xalq qo'shiqlari, musiqiy o'yinlar, oddiy xalq kuy va qo'shiqlari murakkab mumtoz cholg'u kuy va ashulalar, katta ashula namunalari, doston nomalari, kompozitor va bastakorlarimiz asarlari, mashxur chel el kompozitorlari kuy va qo'shiqlari, opera va balet kabi sahna asarlari musiqalari qatorida maqom sho'balari tinglash va kuylash ham tavsiya etilgan. Dars jarayonida maqom ohanglari bilan boshqa musiqa materiallarini qiyoslash asosida ularning umumiy va farqli xususiyatlarini aniqlash mumkin. Masalan Buxoro Shashmaqomi mushkilot (cholg'u) kuylari bilan Yevropa cholg'u kuy janri bo'lgan sonatani tuzilish tamoyilini taqqoslab ko'rish mumkin. Bunda Shashmaqomdagi xona ya'ni, yangi kuy tuzilmasini sonatadagi epizodga va xonalar orasida naqarotga o'xshagan takrorlanib keladigan bozgo'y kuy tuzilmasini xuddi shunday takrorlanib keluvchi refrenga qiyoslash mumkin.

Darsda tahliliy taqqoslash usulidan unumli foydalanish o'quvchilarga darsning barcha musiqa materiallarini bir biri bilan bog'lanish va o'zaro aloqada o'rganishga imkon beradi.

O'quvchilar cholg'u kuylari, xususan, maqom cholg'u sho'balari tinglab idrok etishga birmuncha qiynaladilar. Sof cholg'u musiqa asarini eshitib baholashda xatto yirik kompozitorlarning ham fikrlari har xil bo'lgan. Maqom mushkilot (cholg'u) kuylarini tinglashda o'qituvchi dastlab maqom kuylari hajmi jihatdan katta bo'lishi, shu sababdan ko'pgina maqom cholg'u kuylarining ma'lum qismini darsda tinglash tavsiya etilgan. Odatda tasnif, tarje, gardun va boshqa kuylarni tinglashdan oldin ularning nomi, qaysi maqomdan olinganligi, nomi qanday ma'noni anglatishi, nomlarning doira usuli nomidan kelib chiqishi, ularning tuzilish tamoyillari, xona va bozgo'ylar nisbati, kuy diapazonining kengligi, usul



xususiyatlari, ularning murakkabligi, ularda nota yozuvda aniq aks ettirish qiyin bo'lgan milliy bezaklar ishlatilishi, shu bezaklar kuyning asosiy milliy xususiyatlarini belgilashi, maqom cholg'u sho'balarning mohir ijrochi ustozlari haqida ma'lumotlar beriladi.

Maqom sho'balaridan kuy parchalari chalib ko'rsatish uchun o'qituvchi birinchi navbatda cholg'uning sozini tekshirib, zarur bo'lsa uni sozlashi, imkoni boricha kuyni yoddan chalishi yoki nota yozuviga qarab, kuyning sur'ati, dinamikasi, usuli, tovushlarning tubdor, sifatli chiqishi, o'quvchilarning diqqat va e'tibor bilan tinglashini kuzatib ijro qilishi zarur. O'qituvchi darsdagi ijroga tayyorlanar ekan, o'zi uchun kuyning o'lchovi, diapazoni, lad va tonalligi kabi hususiyatlaridan kelib chiqadigan tavsifini bilishi zarur. Har bir ijrodan keyin, asarning o'quvchilarga g'oyaviy tuyg'uli ta'siri darajasini aniqlashi, ularning fikrlarini bilishga harakat qilishi kerak.

Maqom cholg'u kuylarini mashxur ustoz sozandalar ijrosidagi audio yozuvlardan tinglash rejalashtirilgan bo'lsa, ishni texnika vositalarini darsga tayyorlashdan boshlash lozim. Bu faoliyatni amalga oshirishda ham dastlab o'quvchilarga asar va uning ijrochisi haqida muxtasar ma'lumotlar beriladi. Shuni unutmash lozimki, har qanday yaxshi asar va uning yuksak ijrosi eshitish jarayonining sifatiga bog'liq bo'ladi. Agar texnika vositalarida nosozlik bo'lsa, o'quvchilarda yaxshi kayfiyat va musiqadan yetarli lazzatlanish va ruhiy ozuqa olishga putur yetadi.

Maqom ashula yo'llarida adabiy matn (she'r va g'azallar), bo'lganligi sababli ularning mazmun ma'nosini tushunish o'quvchilar uchun birmuncha osonroq kechadi.

Musiqqa – tovushlar san'ati, u o'zida insonlar ichki dunyosi aksini saqlaydi. Odam musiqani yaratib, unda o'zining his va xayollarini aks ettiradi. Musiqani qabul (idrok) qilgan kishi esa undan o'zini qo'zg'atib, to'lqinlatib kelgan barcha narsalarga aks sado topadi. Musiqqa inson ichki kechinmalarini rivojlantirib, chuqurlashtirib, uni xayrxoh bo'lishiga yordam beradi.

Maktab o'quvchilari tizimlilik va izchillik kabi ta'lim nazariyasi (didaktika) tamoyillari asosida maktabgacha ta'limdan boshlab, umumiy musiqiy ta'limning yakuniy bosqichi bo'lgan 7-sinfgacha oddiy xalq kuy va qo'shiqlaridan boshlab, murakkab maqom namunalarigacha o'zlashtirib kelishi sharoitida musiqqa sohasidagi DTSlari va namunaviy o'quv dasturi talablarini amalga oshirish mumkin.

Umumta'lim maktabi musiqqa madaniyati darslari va sinfdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilar o'rganishi zarur bo'lgan dars materiallarini qoniqarli darajada o'zlashtirilishi uchun o'quvchilar dars va mashg'ulotlarda amalga oshiradigan musiqiy faoliyat turlari, ularning maqsadi, shakli va mazmunini yaqqol anglashlari kerak. Buning asosiy shart-sharoitlaridan biri- har bir darsda ularning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish ustida muntazam ravishda maxsus ish olib borilishidir.

Umumiy musiqqa ta'limda maqom namunalarini o'rganish jarayonini uslubiy takomillashtirish orqali o'quvchilarning maqom namunalarini tinglash va qisman kuylash faoliyati davomida maqom musiqasining g'oyaviy tuyg'uli ta'sirini sezish, idrok etish, ularga qiziqishning oshishi, ularni qabul qilish va tinglashga ehtiyoj sezilishi kabi belgilangan pedagogik vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Ammo shuning bilan birga, o'qituvchilarning vokal va cholg'u asboblarning yetishmasligi, sinfdan tashqari ishlarga e'tiborning pastligi kabi muommolar ham bor.



Qo`yilgan vazifalarni bajarish uchun birinchi navbatda o`qituvchilar tayyorlash va sifatli musiqa darslari o`tilishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish muommolarining yechimini topish zarur.

References:

1. 2017-yil, 17-noyabrdagi "O`zbek milliy maqom san`atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi PQ-3391-son qarori
2. 2020-yil 2-sentabrdagi Yunus Rajabiy nomidagi o`zbek milliy maqom san`at institutini tashkil etish to`g`risida"gi 536-sonli qarori
3. 2018-yil 6- apreldagi "Xalqaro maqom san`ati anjumanini o`tkazish to`g`risida"gi PQ-3656-sonli qarorlari
4. I.Rajabov."Maqomlar masalasiga oid"-Toshkent,O`zbekiston Davlat nashriyoti-1963
5. Abdurauf Fitrat "O`zbek klassik musiqasi va uning tarixi"Toshkent, G`ofur G`ulom-2002.
6. H.Hamidov."O`zbek an`anaviy qo`shiqchilik madaniyati tarixi" Toshkent- O`qituvchi nashriyoti-1996.
7. O.Ibrohimov, "Maqom asoslari"
8. O.Matyoqubov,"Maqomot" Toshkent-2004.
9. I.Akbarov."Musiqqa lug`ati" Toshkent-1997.
10. F.Karomatov " San`at va musiqiy meros. Maqom haqida" maqola T:2018.
11. D.Q. Qodirov " An`anaviy qo`shiqchilik. "Iqtisod-moliya" 2018.
12. S.Begmatov, D. Karimova, Q.Mamirov " Musiqqa" 6-sinf uchun darslik " "G`ofur G`ulom" T: 2008.